

BOTIR ZOKIROV IJODIY MEROSIDA “RA’NO” QO’SHTIG’INING AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINLARI

Abdukarimov Javohir Sobirjon o’g’li

*Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti
Texnogen san’at Musiqiy ovoz rejissyorligi 3 – bosqich talabasi*

Sultanov Xayrullo Abdullayevich

Ilmiy rahbar: Musiqiy ovoz rejissyorligi kafedrası mudiri

Annotatsiya: *Mazkur maqola “O’zbek shansonyesi” bo’lgan Botir Zokirov ijodiy faoliyatining hozirgi kundagi o’rni, shuningdek, ijodiy faoliyatining bestsullerlaridan biri bo’lgan “Ra’no” asarining davr mobaynida talqini hamda bugungi kundagi roli haqida ma’lumot va mulohazalar beriladi. “Ra’no” asarining dastlabki holatidan hozirgi vaqtdagi talqini orasidagi farqlari yuzasidan tahlil qilinib, davr kesimida o’rganiladi.*

Kalit so’zlari: *o’zbek estrada san’ati, Botir Zokirov, Ikrom Akbarov, “Ra’no” asari, talqinlari, aranjirovka, versiya, Javohir Zokirov, “Yalla” ansamblli, Faruh Zokirov, “Sato guruhi”.*

Аннотация: *данной статье приводятся сведения и комментарии о современном месте творческой деятельности Батыра Закирова, являющегося «Узбекским шансоном», а также об интерпретации произведения «Ра’но» являющегося одним из бестселлеров его творческой деятельности, в течение периода и его сегодняшней роли. Произведение «Ра’но» анализируется с точки зрения различий между первоначальным состоянием и современной интерпретацией и изучается в разрезе периода.*

Ключевые слова: *узбекское эстрадное искусство, Батыр Закиров, Икрам Акбаров, произведение «Ра’но», интерпретации, аранжировка, версия, Жавохир Закиров, ансамбль «Ялла», Фарух Закиров, «Группа Сато».*

O’zbek estrada san’ati haqida so’z borar ekan, Botir Zokirov ijodiga yuzlanmay iloji yo’q. Ushbu shaxsning ijodiy faoliyati ulkan bir davrni o’z ichiga oladi. Qisqa umr ko’rganiga qaramay, yorqin ovoz sohibining ijodiy faoliyati beqiyosdir.

Botir Zokirov estrada musiqasini rivojlantirishda muhim o’rin egallab, o’zbek xalq musiqasi va zamonaviy ijro uslublari birlashtirishga erishdi. Uning ijrolari nafaqat milliy musiqaning, balki xalqaro musiqiy madaniyatning ham elementlarini hamda Sharq va G’arb musiqiy uslublari uyg’unlashtirib, keng tinglovchilar uchun mazmunli dasturlar taqdim eta oldi.

Serqirra ijodkorning faoliyati davomida mahoratli kompozitorlar bilan olib borgan hamkorliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Ikrom Akbarov, Enmark Salihov, Mutavakkil Burhonov, Sayfi Jalil kabi kompozitorlar uning yorqin bariton ovozinin nozik imkoniyatlarini chuqur his etib jahon durdonalarini yaratdi.

Uning ijrosida “Ra’no”, “Gazli”, “Arab tangosi”, “Yor kel”, “Mahbuba”, “Ey sarbon”, “Umid”, “Maftun bo’ldim”, “Namedonam, chi nom dorad”, “Majnun monologi”, “Kechalar

yulduz sanab” kabi asarlar jahon bestsellerlariga aylandi. Uning ijro mahorati hamda asar mazmun mohiyatini chuqur his etish qobiliyati mazkur asarlarni jahon jabhasida yangrashiga sabab bo’ldi.

“O’zbek shansonyesi” ijrosida yangragan “Ra’no” asari inson qalbiga orom beradi. Asar Ikrom Akbarov qalamiga mansub bo’lib, she’riy matni Sulton Akbariyga tegishlidir. Serqirra ijodkorning noyob ovozida sadolangan “Ra’no” asari sahna yuzini ko’rgan davridan boshlab muvaffaqiyatga erishdi va bugungi kunga qadar dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ushbu ijod mahsuli nafaqat estrada yulduzlari, balki yosh iste’dodlar tomonidan ham ijro etilmoqda Xususan, Farux Zokirov, Rashid Xolikov, Javohir Zokirov, Marchello Mamarello kabi san’atkorlar ushbu asarni o’z uslublariga solib, yangi talqinlarda ijro etishdi. Ijro versiyalarining aksariyati vokaldir va “Sato guruhi” ijrosidagi qo’shiqning talqini yagona cholg’u versiyasidir. O’z navbatida, eng so’nggi saundtreklar ya’ni yangicha sayqallangan aranjirovkalar ijodiy tandemlar asosida yozilgan minus-treklar (ya’ni vokalsiz) bo’lib, ularning mualliflari Xushnud Nazarov va Farhod Sobirov. Shuningdek, Dilshod Qurbonov va Doston Rasulov talqini ham milliy va jaz uslublarini uyg’unlashtirgan.

Asarning ilk versiyasi Ikrom Akbarov tomonidan yozilgan asl ko’rinishida namoyon bo’lib, qat’iy metr va ritm ohangida sadolanadi. Fortepiano partiyasining fakturasi septakkordlar va sof garmonik qoidalar asosida tuzilgan ya’ni ko’proq fortepiano uchun yozilgan akademik asarni eslatadi. Shuni ta’kidlash joizki, keyingi ijrolarda garmoniyasiga o’zgarish kiritilgan bo’lib, qayta ishlangan 1973, 2011 va 2021 yillardagi versiyalari muallif dastlab singdirgan musiqiy go’yalarni ochib beradi. Ushbu asarning talqin qilingan versiyalarini tahlil qilish uchun, dastlab transformatsiya shakllariga e’tibor qaratish kerak. Zamonaviy musiqani talqin qilishning o’ziga xos transformatsiya shakllari mavjud. Jumladan, remeyk, remiks va kaver. Remeyk (ing.remake) bu holatda asarning kompozitsion tuzilishi o’zgarmaydi, lekin uning fakturasi va texnik sifati yangi davr musiqasiga moslashtiriladi. Remiks (ing.remix) esa asl kompozitsiyaning ovoz qismlariga ajratilib, qayta sintezlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan audiomaterialdir. Bu sohada ijodkor ovoz muhandisi, interpretator va DJ hisoblanadi. Kaver atamasiga kelsak, asl kompozitsiyaga boshqa ijrochi tomonidan taqlid qilinishi natijasida yuzaga kelgan ijod mahsulidir. “Ra’no” asarining talqini ilk davridan to hozirgi kungacha bir qancha o’zgarishlar orqali hali hamon yashab kelmoqda. Ahamiyatli jihati shundaki, Botir Zokirov ham ushbu asarning remiks versiyasini ijro etgan. Javohir Zokirov va Rashid Xolikov ijrosida esa remeyk sifatida ijro etilganini ko’rishimiz mumkin.

Javohir Zokirov ijrosida “Ra’no” asarining talqini. Javohir Zokirov mahoratli aktyor, rejissyor, iste’dodli xonanda va Zokirovlar sulolasining taniqli vakillaridan biri. U o’zining amakisi, mashhur xonanda Botir Zokirov tomonidan ilk bor 1964-yilda ijro etilgan “Ra’no” qo’shig’ini yangicha talqinda jonlantirdi. Javohir Zokirov professional xonandadan ko’ra ko’proq dramatik aktyor sifatida kuylaydi. U Botir Zokirovning akademik vokal uslubidan qochib, ko’proq shanson va xonish elementlaridan foydalanadi. Uning ijrosida so’zlarning ma’nosi va ichki kechinmalar musiqiy notalardan

ustunroq turadi. Bu esa qo'shiqqa samimiylik va zamonaviy ruh bag'ishlaydi. Asosiy urg'u elektron cholg'ularga berilgan. Ayniqsa, sokin gitara va sintezator effektlaridan mukammal darajada foydalanilgan. Agar Botir Zokirov ijrosi ilohiy ishq darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, Javohir Zokirov ijrosida ehtirosli monolog sifatida namoyon bo'ladi. Botir Zokirovning ijrosidan farqli o'laroq, Javohir Zokirov o'zining biroz xirildoq va bo'g'iqlik ovozi bilan asarni hozirgi ommaviy musiqaga yaqinlashtirgan. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, "Ra'no" qo'shig'i "Oltin davr" o'zbek estrada musiqasining yuqori madaniyat ramzidir. Javohir Zokirov ijrosida ushbu asar klassik asarni bugungi kun kishisining ichki kechinmalariga moslab qayta o'qish kabidir.

"Yalla" guruhi ijrosida "Ra'no" asarining talqini. "Yalla" guruhi 1970-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan, butun dunyoga mashhur o'zbek vokal-cholg'u ansamblidir. Guruh o'z ijodida o'zbek xalq ohanglarini zamonaviy estrada va rok yo'nalishlari bilan mahorat ila uyg'unlashtirgan.

Ushbu ansamblning ijrosi orqali "Ra'no" asariga o'zgacha rang kirgan. Faruh Zokirov ijrosida sharqona ohang va muhit sezilib turadi. Farrux Zokirov akasining ijro uslubiga hurmat saqlagan holda, qo'shiqqa nisbatan o'ziga xos yumshoqlik va ansambl ovozlari uyg'unligiga erishishga harakat qilgan.

Asar zamonaviy garmoniya asosida aranjirovka qilingan bo'lib, konsert uslubida jonlantirilgan. Unda zamonaviy gitara tovushlari va zarbli cholg'ularning ritmik asosi sezilarli darajada kuchaytirilgan. Musiqaning tezligi daqiqasiga 124 zarb bo'lib, o'rtacha tezlikda, raqsboq sur'atda ijro etiladi. Asarning es moll tonalligida sadolanishi musiqaga salobatli va sirli ruh bag'ishlaydi. Musiqiy uslubi "Disko VIA" ko'rinishida bo'lib, bu 70-80 yillardagi o'zbek estradasi uslubiga xosdir.

Sato guruhi ijrosida "Ra'no" asarining talqini. "Sato guruhi" an'anaviy o'zbek cholg'ularini zamonaviy va xalqaro ohanglar bilan uyg'unlashtirgan mashhur milliy instrumental musiqaga guruhi bo'lib, ushbu guruh ijrosida Ikrom Akbarovning "Ra'no" asari o'zgacha tus olgan. Musiqiy uslubi xalq musiqasi va pop musiqasining uyg'unlashuvidir (etno-pop). Mazkur guruhning ijrosida milliylik barh urib turadi. Har bir cholg'uning ijrosi, musiqiy elementlari va garmoniyasida o'zgacha milliy tafakkur bor. Huddiki Botir Zokirov ijrosidagi an'anaviy "Ra'no" asaridan mutloq farq qiladi. Asar sharqona mumtoz ohanglar ya'ni maqom yo'llari, g'arbning zamonaviy ritmlari va aranjirovkasi bilan uyg'unlashgan bo'lib, kuyning asosiy mavzusi sato cholg'usida yangraydi. Uning inson ovozigacha yaqin, "nolali" sadosi asarga lirik va birmuncha mahzun kayfiyat bag'ishlaydi.

Garmoniya an'anaviy kvarta-kvinta intervallaridan tashqari, zamonaviy uslubdagi septakkordlar bilan to'ldirilgan, bu esa musiqaga chuqur akustik ohang beradi. Asar monotematizm ya'ni bir mavzuning rivojlanishi asosida ijro etilgan bo'lib, tonallik d moll ohangida jilolanadi va biroz g'amgin va sirli kayfiyat bag'ishlaydi.

Kompozitsiyaning ekspozitsiya qismi lirik ohanglar ila sadolanib, avj niuqtasiga kelganda cholg'uning yuqori registriga ko'tarilishi va dinamikaning ortishi orqali ichki hissiy drammatizm ifodalanadi.

Repriza qismi ya'ni asar yakuni yana ilk sokinlikka qaytib honish beradi va bu lirik qahramonning ichki olamidagi xotirjamlikni anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tursunova G “Karim Zokirov va uning sulolasi XX asr O'zbekiston musiqa madaniyati kesimida” monografiya T:2020.
2. Xodiyeva Z. I “O'zbekiston kompozitorlarining estrada janridagi asarlarida ohang va garmoniya mutanosibli” T:2025.